



SAMARQAND VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI BOSHLIQ‘INING BUYRUG‘I

2 aprel 2024 yil.

№ 24-u-son

Samarqand sh.

Bosh boshqarma boshqaruv xodimlari hamda quyi tizimdagi rahbarlik lavozimlariga qo‘yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 28-martdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi markaziy apparati boshqaruv xodimlari hamda hududiy tashkilotlar rahbarlik lavozimlariga qo‘yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 58 -SHT-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash, bosh boshqarma boshqaruv xodimlari hamda quyi tizimdagi rahbarlik lavozimlariga malakali kadrlarni saralash va tanlash orqali ish samaradorligini oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Bosh boshqarma boshqaruv xodimlari hamda quyi tizimdagi rahbarlik lavozimlariga qo‘yiladigan malaka talablari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho‘basi** bosh boshqarma hamda quyi tizimdagi rahbarlik lavozimlariga kadrlarni ishga qabul qilishda (tayinlashda), ularni tegishli lavozimlarga tavsiya etishda, boshqa lavozimga o‘tkazishda mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan malaka talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlasin va xodimning egallab turgan lavozimiga loyqlik masalasi ko‘rilayotganda (attestatsiya yoki xizmat tekshiruvi xulosasida) inobatga olinsin.

3. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho‘basi** tasdiqlangan malaka talablarini davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portaliga (vacancy.argos.uz) joylashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish agentligining hududiy filiali bilan doimiy hamkorlik o‘rnatsin.

4. **Axborot xizmati bo‘yicha bosh mutaxassisi** mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan malaka talablarini bosh boshqarmaning rasmiy saytiga joylashtirsin.

5. **Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari boshliqlari** bir hafta muddat ichida bo‘limdagi har bir

lavozimlar bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqsin va bosh boshqarmaning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basiga taqdim etsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni bosh boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Sayipov zimmasiga qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig'i



T.Mahmudov